



SPECIAL PROCEDURAL GUARANTEES FOR OBTAINING AND EXAMINING DIGITAL EVIDENCE IN CRIMINAL CASES INVOLVING JUVENILES

Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi

Master's student in Cyber Law Tashkent State University of Law, Uzbekistan

G-mail: gulnozashorasulova@gmail.com

Abstract: This research analyses the special procedural guarantees for obtaining and examining digital evidence in criminal cases involving juveniles. The work examines the systemic connection between Chapter 60 of the Criminal Procedure Code and the new provisions of the digital evidence institute, in comparison with international legal sources. The analysis results in a conceptual framework of a two-tier procedural regime and formulates practical proposals for eliminating procedural gaps across four areas.

Keywords: juvenile, digital evidence, CPC Chapter 60, Article 121, Article 204¹, specialist, participation of pedagogue and psychologist, cyberbullying, Convention on the Rights of the Child, Lanzarote Convention, legal representative, procedural guarantee.

VOYAGA YETMAGANLAR ISHTIROKIDAGI JINOYAT ISHLARIDA RAQAMLI DALILLARNI OLISH VA TADQIQ QILISHNING MAXSUS PROTSESSUAL KAFOLATLARI

Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquqi mutaxassisligi magistranti, O'zbekiston

G-mail: gulnozashorasulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyat ishlarida raqamli dalillarni olish va tadqiq qilishning maxsus protsessual kafolatlari tahlil qilingan. Ish Jinoyat-protsessual kodeksining 60-bobi va raqamli dalillar institutining yangi normalarining tizimli munosabatini xalqaro huquqiy manbalar bilan qiyoslab tadqiq etadi. Tahlil natijasida ikki bosqichli protsessual rejimning konseptual ramkasi shakllantirilgan va to'rt yo'nalishdagi protsessual bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan, raqamli dalil, JPK 60-bob, 121-modda, 204¹-modda, mutaxassis, pedagog va psixolog ishtiroki, kiberbulling, Bola huquqlari konvensiyasi, Lanzarote konvensiyasi, qonuniy vakil, protsessual kafolat.



Kirish

Bola hayotining raqamli muhitga ko‘chishi XXI asrning eng ahamiyatli ijtimoiy o‘zgarishlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. UNICEF tomonidan e‘lon qilingan hisobotda dunyo bo‘yicha Internet foydalanuvchilarining har uchdan biri bola ekanligi qayd etilgan. Bu raqam zamonaviy huquqiy tizim oldida turgan vazifalarning ko‘lamini ko‘rsatadi (UNICEF, 2017). Mazkur o‘zgarish, o‘z navbatida, voyaga yetmaganlarning jinoyat-protsessual munosabatlardagi maqomini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bolalar bugungi kunda nafaqat an‘anaviy huquqbuzarliklar, balki raqamli muhitda sodir etiladigan jinoyatlarning ham subyeksi, ham obyekti bo‘lishi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda Wall tomonidan asoslangan tipologiyaga ko‘ra, kiberjinoyatlar an‘anaviy jinoyatlardan keskin farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Ya‘ni ular tezligi, masofadan amalga oshirilishi, dalillarning oson o‘zgaruvchanligi va jabrlanuvchining anonimligi bilan ajralib turadi (Wall, 2007). Ushbu xususiyatlar voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlarga taalluqli bo‘lganda esa qo‘shimcha pedagogik va psixologik o‘lchamlarni ham qamrab oladi. Holt va Bossler e‘tirof etganidek, voyaga yetmaganlarni jalb qilgan kiberjinoyatlarning sezilarli qismi virtual makonda boshlanib, keyinchalik real hayotga ko‘chiriladi va bu o‘z navbatida tergov organlarining ish uslubiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi (Holt & Bossler, 2014).

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi mazkur global tendensiyalarga javob tariqasida bir qator islohotlarni amalga oshirgan. Davlat boshlig‘ining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmonida bolalarni raqamli muhitda himoya qilishning kompleks tizimini yaratish vazifasi belgilangan. Mazkur tizim doirasida kiberbulling, onlayn ta‘qib, noqonuniy kontent va psixologik zo‘ravonlik holatlariga tezkor javob berish uchun 24/7 rejimda ishlovchi monitoring platformasini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan ta‘kidlash joizki, mazkur strategik vazifaning amaliy ijrosi to‘g‘ridan to‘g‘ri voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olishning maxsus protsessual rejimi mavjudligi bilan bog‘liq. Jinoyat-protsessual kodeksining voyaga yetmaganlarga oid 60-bobi (547-564-moddalar) va 121-moddasi voyaga yetmaganlarning maxsus protsessual maqomini umumiy darajada belgilab beradi. Shu bilan bir vaqtda, 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan kodeksga raqamli dalillar intituti kiritildi. 81-moddasi raqamli dalillarni rasmiy dalil turi qatoriga qo‘shdi, 204¹- va 204²-moddalar elektron ma‘lumotlar hamda raqamli dalillar tushunchalarini huquqiy mustahkamladi, 95¹-moddasi to‘rtinchi qismi esa mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma‘lumotlarni nomaqbul deb e‘tirof etdi. Mazkur ikki normativ qatlamning o‘zaro tizimli bog‘lanishi voyaga yetmaganlar uchun maxsus tartib va raqamli dalillar ishtitutining yangi normalari milliy huquqshunoslikda



hozircha alohida tadqiqot mavzusi to'liq o'rganilmagan. Aynan ushbu ilmiy bo'shliq tadqiqotning yangiligini asoslaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi bir qancha omillar bilan asoslanadi. Avvalo, davlat boshlig'ining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmoniga ko'ra, kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 49,6 foizni tashkil etadi va mazkur jinoyatlarning sezilarli qismi voyaga yetmaganlar ishtirokida sodir etiladi. Shuningdek, 2017-yil 8-sentabrdagi O'RQ-444-sonli "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun bolalarni raqamli muhitda himoya qilishning umumiy ramkasini yaratgan bo'lsa-da, protsessual mexanizmlarni belgilamagan. Yana shuni e'tiborga olish kerakki, 2024-yilda kodeksga kiritilgan raqamli dalillar institutining yangi normalari voyaga yetmaganlarning maxsus protsessual maqomini hisobga olmagan. Bundan tashqari, xalqaro huquq doirasida BMTning Bola huquqlari konvensiyasi (1989), Beijing qoidalari (1985), Lanzarote konvensiyasi (2007) va Yevropa Ittifoqining 2016-yildagi Umumiy ma'lumotlar himoyasi reglamenti (GDPR) voyaga yetmaganlardan dalil olishning maxsus standartlarini belgilab bergan, ammo ular milliy huquqiy ramkaga to'liq moslashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olishning amaldagi maxsus protsessual kafolatlarini chuqur tahlil qilish, ularning xalqaro standartlar bilan muvofiqlik darajasini aniqlash hamda mavjud bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari sifatida voyaga yetmaganlarning raqamli sohadagi huquqiy maqomini aniqlash, Jinoyat-protsessual kodeksining 60-bobi va raqamli dalillar institutining tizimli muvofiqligini tadqiq etish, xalqaro tajriba bilan komparativ tahlil o'tkazish va aniq amaliy yechimlarni shakllantirish belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Voyaga yetmaganlarning raqamli sohadagi huquqlari va ulardan dalil olishning protsessual jihatlari xorijiy ilmiy adabiyotda turli rakurslarda tadqiq qilingan. Mazkur sohaning nazariy-konseptual asoslari Casey tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, muallif raqamli dalillarning umumiy nazariyasini yaratish jarayonida bolalardan olinadigan ma'lumotlarning o'ziga xos protsessual rejimi haqida muhim qoidalarni ilgari surgan. Caseyning ta'kidlashicha, raqamli dalillardan sud-protsessual tartibda foydalanish uchun ularning yaxlitligi, ishonchliligi va izohlanuvchanligi ta'minlanishi shart. Ushbu uchta talab voyaga yetmaganlar ishlarida ayniqsa qattiq qo'llanilishi lozim (Casey, 2011, b. 9). Carrier tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter tizimlari kriminalistik tadqiqotining metodologik ramkasi mazkur sohaning amaliy poydevorini yaratgan.



Muallifning xulosalariga ko‘ra, raqamli dalil bu yashirin bo‘lib, faqat ilmiy uslublar yordamida ochiladigan ma‘lumot hisoblanadi va uning tadqiqi qat‘iy tartibga rioya qilishni talab etadi (Carrier, 2005). Mazkur yondashuv voyaga yetmaganlardan olingan raqamli ma‘lumotlarni tahlil qilishda pedagogik-psixologik o‘lchamlar bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiqdir. Mason tomonidan tahrir qilingan tahliliy to‘plamda raqamli dalillarning huquqiy maqomini xalqaro nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Muallifning fikricha, raqamli dalillar kriminalistika, axborot xavfsizligi va huquqshunoslikning kesishmasida joylashgan integratsion obyekt bo‘lib, ularning protsessual rejimi har bir milliy huquq tizimida alohida shakllantirilishi kerak (Mason, 2017). Pollitt esa raqamli kriminalistikaning rivojlanish tarixini tahlil qilib, sohaning uch bosqichli evolyutsiyasini, ya‘ni *ad hoc*, *tuzilmaviy* va *institutsional* bosqichlarni asoslab bergan. Mazkur sxema voyaga yetmaganlar bilan ishlashning ham bosqichli rivojlanish modelini taklif qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi (Pollitt, 2010). Voyaga yetmaganlarning raqamli huquqlari sohasidagi yetakchi mutaxassis Livingstonedir. Muallifning Third bilan birga e‘lon qilgan tadqiqotida bolalarning raqamli muhitdagi huquqlari Bola huquqlari konvensiyasi normalari asosida yangi avlod konsepsiyasida talqin qilingan. Mualliflarning xulosasiga ko‘ra, raqamli muhitda bolalarning ishtiroki Konvensiyaning klassik talqinlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi (Livingstone & Third, 2017). Livingstonening keyingi ishida bolalar ma‘lumotlarining maxfiyligi va onlayn xavfsizlik masalalari empirik tarzda tadqiq etilgan. Muallif bolalarning shaxsiy ma‘lumotlari himoyasi nafaqat texnik, balki protsessual kafolatlarni ham talab etishini asoslagan (Livingstone, 2018). Lievens raqamli muhitda bolalarni himoya qilishning huquqiy ramkasini Yevropa kontekstida tahlil qilgan. Muallifning xulosasi shundan iboratki, an‘anaviy huquqiy kafolatlar raqamli muhitda yetarli emas. Shuning uchun bolalarning maxsus zaifligi e‘tiborga olinishi va qo‘shimcha protsessual mexanizmlar yaratilishi shart (Lievens, 2010). Schabas BMTning Bola huquqlari konvensiyasining akademik sharhini yozib, voyaga yetmaganlar bilan protsessual munosabatlarda *bola manfaatlarining ustuvorligi* prinsipining huquqiy mazmunini chuqur ochib bergan (Schabas, 2018). Kiberjinoyatchilik kontekstida voyaga yetmaganlarning maqomi Wall va Holt-Bossler ishlarida tahlil qilingan. Wall kiberjinoyatlarni uch turga ajratib: kompyuterga qarshi, kompyuter yordamida, kompyuter bilan bog‘liq jinoyatlarga ahratgan hamda har bir turning protsessual xususiyatlarini asoslab bergan (Wall, 2007). Holt va Bossler esa yoshlar va o‘smirlarning kiberjinoyatlardagi ishtirokini empirik tarzda tadqiq qilib, voyaga yetmaganlarning raqamli muhitdagi virtual identifikatsiyasi an‘anaviy huquqiy himoya mexanizmlarining qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etishini ta‘kidlagan (Holt &



Bossler, 2014). Sun'iy intellekt va sud-huquq tizimi munosabatlari kontekstida Završnik muhim hissa qo'shgan bo'lib, muallifning fikricha, SI texnologiyalari kriminalistikaga kirib kelishi bilan voyaga yetmaganlarning maxsus protsessual kafolatlari ham yangi shakllarda himoya qilinishi zarur (Završnik, 2020). MDH davlatlari huquqshunosligida elektron dalillarning protsessual maqomi Vexovning ishlarida chuqur tadqiq qilingan. Muallifning qoidalariga ko'ra, elektron dalillar an'anaviy ashyoviy dalillarning oddiy bir turi emas, balki o'ziga xos huquqiy tabiatga ega obyekt sifatida talqin qilinishi kerak (Vexov, 2016). Rossinskaya va Semikalenova tomonidan kompyuter-texnik ekspertizaning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Ular voyaga yetmaganlarga oid ekspertizalarda alohida metodik talablar belgilanishini asoslab bergan (Rossinskaya & Semikalenova, 2016). Texnik standartlar nuqtayi nazardan esa NIST (2014) tomonidan ishlab chiqilgan SP 800-101 standarti mobil qurilmalardan dalil olishning to'rt bosqichli yondashuvini belgilab bergan (Ayers et al., 2014). Mazkur metodologiya voyaga yetmaganlarning shaxsiy qurilmalarini tadqiq qilishda alohida qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Olib borilgan adabiyotlar tahliliga muvofiq, voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olishning maxsus protsessual rejimi xalqaro akademik adabiyotda umumiy konseptual ramkalarda tadqiq qilingan, biroq O'zbekiston huquq tizimi kontekstida ushbu masala alohida tadqiqot mavzusi sifatida tahlil etilmagan. Aynan mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirish ushbu tadqiqotning maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Olib borilgan tadqiqot dialektik usul bilan boshlanib, mazkur yondashuv voyaga yetmaganlarning himoyasi va jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi o'rtasidagi muvozanat masalalarini tadqiq etishga imkon berdi. Mazkur usul yordamida ikki kuchli huquqiy manfaatning o'zaro to'qnashuvi nuqtalari aniqlangan: bir tarafdin voyaga yetmaganlarning psixofizik holatini himoyalovchi maxsus rejim, ikkinchi tarafdin kiberjinoyatlarni tergov qilishning tezligi va samaradorligini talab qiluvchi protsessual texnik tartib. Tadqiqotning markaziy metodi sifatida komparativ-huquqiy usul tanlangan. Ushbu yondashuv yordamida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bir nechta xalqaro huquqiy manbalar bilan o'zaro qiyoslangan. Masalan, BMTning Bola huquqlari konvensiyasi, Beijing qoidalari, Lanzarote konvensiyasi, Budapesht konvensiyasi va Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti. Qiyoslashning bola manfaatlarining ustuvorlik prinsipi, qonuniy vakil ishtirokining majburiyligi, pedagog va psixolog jalb etish tartibi, so'roq vaqtining huquqiy chegaralanishi, qayta so'roqning oldini olish mexanizmlari, audio-video qayd etish standartlari hamda maxfiylik kafolatlari mezonlari orqali o'tkazildi. Hujjat tahlili usuli orqali asosiy



normativ-huquqiy hujjatlarning matnlari chuqur o'rganildi. Tahlil obyekti sifatida 2023-yildagi tahrirdagi Konstitutsiya, 2024-yilgi tahrirdagi Jinoyat-protsessual kodeks (60-bob, 81-, 87-, 88-, 95¹-, 121-, 161-, 204¹-, 204²-, 205-moddalar), maxsus qonunlar (O'RQ-444, O'RQ-547, O'RQ-249, O'RQ-344, O'RQ-764), prezident farmonlari va qarorlari (PQ-153, PQ-155, PQ-229, PF-21, PF-22, PF-38) hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari xizmat qildi. Tizimli-strukturaviy tahlil yordamida voyaga yetmaganlar ishlariga bog'ishlangan maxsus normalar va raqamli dalillar institutining yangi normalari o'rtasidagi tizimli bog'lanish va muvofiqlik tadqiq etildi. Mazkur usul bilan ikki normativ qatlamning birgalikda qo'llanilishi natijasida shakllanadigan protsessual zanjirning ichki tarkibi va kafolat darajalari aniqlandi. Yuridik-konstruktiv usul amaliy takliflarni shakllantirish va aniqlangan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan konkret yechimlarni loyihalashtirishda foydalanildi. Nihoyat, doktrinal tahlil usuli xorijiy ilmiy adabiyot va xalqaro huquqiy manbalar asosida nazariy asoslarni shakllantirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Voyaga yetmaganlarning raqamli sohadagi huquqiy maqomi murakkab strukturaga ega bo'lib, u bir nechta huquqiy qatlamning kesishmasida shakllanadi. Mazkur strukturaning tahlili tadqiqotning konseptual asoslarini aniqlash uchun zarurdir. Konstitutsiyaviy darajada voyaga yetmaganning huquqiy himoyasi 31-modda doirasida bevosita kafolatlanadi. Shaxsiy hayot dahlsizligi, yozishmalar maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi to'g'risidagi normalar voyaga yetmaganlarga ham tatbiq etiladi, biroq ularning yosh xususiyatini hisobga oluvchi maxsus konkretizatsiya hozirgi tahririyatda mavjud emas. Schabas tomonidan asoslangan qoidaga ko'ra, bolaning shaxsiy ma'lumotlari kattalar ma'lumotlariga nisbatan keskinroq huquqiy himoyaga muhtoj, chunki bola hayotidagi har bir ma'lumot uning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin (Schabas, 2018). Mazkur nazariy qoidaning milliy konstitutsiyaviy doktrinaga implementatsiyasi alohida tadqiqot vazifasini tashkil etadi. Maxsus qonunchilik darajasida 2017-yil 8-sentabrdagi O'RQ-444-sonli Qonun bolalarni axborotdan himoya qilish sohasida asosiy huquqiy bazani yaratgan. Mazkur qonun "bola" tushunchasini o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs sifatida belgilab beradi va axborot mahsulotini bolaning sog'lig'iga ta'siri jihatidan tasniflashning kriteriyalarini ko'rsatadi. Shu o'rinda Lievens tomonidan ilgari surilgan tezisning to'g'riligini ta'kidlash lozim. Unga ko'ra an'anaviy axborot huquqi kafolatlari raqamli muhitda yetarli emas, chunki bola raqamli muhitda nafaqat axborotni iste'mol qiluvchi, balki o'zi ham ma'lumot ishlab chiqaruvchi sifatida



Learning and Sustainable Innovation

ishtirok etadi (Lievens, 2010). Mazkur ikki tomonlama maqom milliy qonunchilikda hali to'liq aks ettirilmagan. Shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-sonli Qonun bilan tartibga solinadi. Qonunning 4-moddasi shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasini umumiy mezonlar asosida belgilab beradi, biroq voyaga yetmaganlarning ma'lumotlariga oid maxsus rejimni nazarda tutmaydi. Bunga qaramay, Yevropa Ittifoqi GDPRning 8-moddasi bolalar ma'lumotlariga ishlov berish uchun ota-onaning roziligi majburiyligini belgilab beradi (European Union, 2016). Livingstone o'z empirik tadqiqotlarida bolalar ma'lumotlarining alohida himoyasi nafaqat axloqiy, balki huquqiy zarurat ekanligini isbotlab bergan (Livingstone, 2018). Yangi normalar darajasida 2025-yil 30-apreldagi PQ-153-sonli qaror axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini kuchaytirgan, 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-sonli Farmonning 48-bandi esa bolalarni raqamli muhitda himoya qilishning kompleks tizimini yo'lga qo'yishni nazarda tutgan. Mazkur normalar voyaga yetmaganlarning raqamli sohadagi huquqiy maqomini strategik darajada mustahkamlaydi. Shunga qaramay, mazkur strategik vazifalarni amalga oshirish protsessual mexanizmlarning aniqligini taqozo etadi, ammo ushbu mexanizmlar hozircha to'liq shakllantirilmagan. Mazkur to'rt qatlamning umumiy tahliliga ko'ra, voyaga yetmaganlarning raqamli sohadagi huquqiy maqomi milliy qonunchilikda parchalangan tarzda belgilangan. Mason tomonidan asoslangan integratsion yondashuv asosida ushbu maqom yagona konseptual asosga birlashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlarning raqamli muhitdagi protsessual maqomi ikki o'lchamda namoyon bo'ladi. Birinchisi, huquqbuzarlik sodir etgan shaxs sifatida, keyingisi esa jabrlanuvchi sifatida. Ushbu ikki maqom turli protsessual rejimlarni taqozo etadi va ularning huquqiy tahlili tergov organlarining faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Subyekt sifatidagi voyaga yetmaganlarning maqomi Jinoyat-protsessual kodeksining 60-bobida belgilangan. Mazkur bob voyaga yetmaganlarga ayblov e'lon qilish, uni so'roq qilish, ehtiyot choralarini qo'llash, qarovga topshirish, bolalar muassasasiga joylashtirish, qamoqqa olish hamda surishtiruvni yakunlash kabi protsessual harakatlarning maxsus tartibini o'z ichiga oladi. Bobda belgilangan normalarning umumiy mantig'i voyaga yetmaganlarning psixologik va ijtimoiy zaifligini hisobga oluvchi kafolatlarni yaratishdadir. Holt va Bossler tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga muvofiq, voyaga yetmaganlarning kiberjinoyatlarda ishtiroki ko'pincha guruhli xarakterga ega bo'lib, ularning faoliyatining motivatsion-psixologik tahlili an'anaviy jinoyatchilik tahlilidan keskin farq qiladi (Holt & Bossler, 2014).



Learning and Sustainable Innovation

Mazkur empirik xulosa milliy qonunchilikda voyaga yetmaganlarga oid raqamli jinoyatlarni tergov qilishning maxsus metodikasini ishlab chiqish zaruratini asoslab beradi. Obyekt sifatidagi voyaga yetmaganlarning maqomi turli xalqaro hujjatlarda chuqurroq tartibga solingan. Lanzarote konvensiyasining 18-21-moddalari voyaga yetmaganlarga qarshi raqamli muhitda sodir etiladigan jinoyatlarning tarkibini, jumladan, jinsiy ekspluatatsiya, jinsiy zo‘ravonlik, onlayn-grooming va bolalar pornografiyasini belgilab bergan (Council of Europe, 2007). Wall tomonidan ishlab chiqilgan kiberjinoyatlar tasnifiga muvofiq, mazkur jinoyatlar *kompyuter bilan bog‘liq* (computer-related) toifaga kiradi va ularning tergovi an’anaviy zo‘ravonlik jinoyatlaridan keskin farqli yondashuvni talab etadi (Wall, 2007).

Davlat darajasidagi e’tibor mazkur xavflarni rasmiy darajada e’tirof etadi. PF-22-sonli Farmonning 48-bandida kiberbulling, onlayn-ta’qib, noqonuniy kontent va psixologik zo‘ravonlik bolalarning raqamli xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan. Ammo mazkur tahdidlarning huquqiy tabiati va ularga qarshi kurashning protsessual mexanizmlari milliy qonunchilikda to‘liq belgilanmagan. Jinoyat-protsessual kodeksining 121-moddasi voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishning maxsus tartibini belgilab beradi. Moddaning to‘rtinchi qismida belgilanganidek, so‘roqning maksimal davomiyligi voyaga yetmaganning yoshiga bog‘liq holda differentsiyalashtirilgan: kichik yoshlilar uchun 30 daqiqadan oshmagan tanaffussiz so‘roq va kunlik 1 soatdan oshmagan jami davomiylik belgilangan; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lganlar uchun mos ravishda 1 soat va 2 soat; o‘smirlik yoshidagilar uchun esa 2 soat va 4 soatdan oshmasligi shart. Mazkur differentsiyaning ilmiy asosi rivojlanish psixologiyasi va bola huquqlari nazariyasi tomonidan asoslangan (Schabas, 2018; Livingstone, 2018). Shuningdek, jinsiy erkinlikka qarshi yoki o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslar savdosiga oid ishlar bo‘yicha so‘roqning maxsus jihozlangan xonada qonuniy vakil va pedagog/psixolog ishtirokida o‘tkazilishi nazarda tutilgan. Bu Lanzarote konvensiyasining 35-moddasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi (Council of Europe, 2007). Yuqoridagi tahlilning natijasiga ko‘ra, voyaga yetmaganlarning raqamli muhitdagi ikki tomonlama maqomi milliy qonunchilikda umumiy darajada e’tirof etilgan. Biroq raqamli muhitda sodir etiladigan jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblangan virtual identifikatsiya, masofadan amalga oshirish, dalillarning oson o‘zgaruvchanligi voyaga yetmaganlarga oid maxsus protsessual normalarda yetarlicha aks ettirilmagan.



Milliy huquqshunoslikda hozirgacha tadqiq etilmagan asosiy nazariy masala bu voyaga yetmaganlarga oid 60-bobning va raqamli dalillar institutining yangi normalarining o'zaro tizimli munosabatidir. Olib borilgan tahlil mazkur ikki normativ qatlamning birgalikda qo'llanilishi protsessual zanjirning shakllanishiga olib kelishini ko'rsatadi. Casey tomonidan asoslangan klassik raqamli kriminalistika modelida dalil olishning to'rt asosiy bosqichi belgilangan: identifikatsiya, mustahkamlash, tahlil va sudga taqdim etish (Casey, 2011). Carrier esa ushbu modelni texnik chuqurlashtirib, har bir bosqichda ilmiy uslubning takrorlanuvchanligi va izohlanuvchanligi ta'minlanishi zarurligini asoslagan (Carrier, 2005). Voyaga yetmaganlar ishlariga tatbiq etilganda mazkur klassik modelga qo'shimcha yondashuv (pedagogik-psixologik yondashuv) qo'shilishi taqozo etiladi. Milliy huquqiy tizim doirasida protsessual zanjir uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich bosqichda voyaga yetmagan shaxsdan raqamli dalil tashuvchi (mobil qurilma, planshet, kompyuter) olib qo'yiladi. Mazkur jarayon JPKning 161-moddasi (tintuv) yoki 205-moddasi (dalillarni olish usullari) doirasida amalga oshiriladi. Shu o'rinda 60-bob normalari qo'llanilib, qonuniy vakil va pedagog yoki psixologning ishtiroki ta'minlanishi shart. Markaziy bosqichda olingan elektron jismdagi ma'lumotlar 204¹-moddaning uchinchi qismi asosida qabul qilinadi. Tergov organi taqdim etilgan elektron ma'lumotlarni mutaxassis ishtirokida qabul qilib oladi va birlamchi elektron jismni ko'zdan kechiradi. Yakunlovchi bosqichda raqamli dalil sud ekspertizasi orqali tadqiq qilinadi. Ushbu jarayon "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-249-sonli Qonun va Vazirlar Mahkamasining 73-sonli qarori asosida tartibga solinadi (O'zbekiston Respublikasi, 2010; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2023). Mazkur zanjir uchun fundamental kafolat sifatida 95¹-moddaning to'rtinchi qismi xizmat qiladi. Mazkur norma mutaxassis ishtirokisiz olingan elektron ma'lumotlarni nomaqbul dalil deb e'tirof etadi. Vexov tomonidan asoslanganidek, elektron dalillarning o'ziga xos huquqiy tabiati nafaqat texnik, balki protsessual sanksiya bilan ham mustahkamlanishi shart (Vexov, 2016). Voyaga yetmaganlardan dalil olish jarayonida mazkur sanksiya mexanizmi ikki tomondan tatbiq etiladi: bir tomondan, mutaxassis ishtirokisiz olingan dalil nomaqbul deb e'tirof etiladi; ikkinchi tomondan, qonuniy vakil yoki pedagog/psixolog ishtirokisiz amalga oshirilgan harakat 95¹-moddaning umumiy normalari asosida ham nomaqbul bo'lishi mumkin. Olib borilgan tizimli tahlil voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olishning ikki bosqichli kafolat tizimi konseptual asosini shakllantirishga imkon beradi. Ushbu tizimning birinchi qatlami barcha shaxslar uchun yagona qoidalar majmuyini qamrab oladi. Bunga mutaxassis ishtiroki (204¹-modda 3-qismi va 95¹-modda 4-qismi), elektron ma'lumotlarning yaxlitligi (204²-modda 2-qismi) va olib



qo'yilgan ma'lumotlarning rasmiylashtirilishi (88-modda 5-qismi) kiradi. Ikkinchi qatlam bo'lsa, voyaga yetmaganlar uchun maxsus kafolatlar majmuyini o'z ichiga oladi: qonuniy vakil ishtiroki (430- va 431-moddalar), pedagog va psixolog jalb etilishi (121-modda 2-qismi va 554-modda), so'roq vaqtining cheklanishi (121-modda 4-qismi), audio-video qayd etish (121-modda 6-qismi) va yopiq sud majlisi (560-modda). Ushbu ikki qatlamning birgalikda qo'llanilishi voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olishning yagona huquqiy rejimini hosil qiladi. Shu munosabat bilan, mazkur rejimning konkret amal qilish mexanizmlari hozircha alohida normativ hujjatda mustahkamlanmagan.

Protsessual zanjirning amaliy ifodasi turli protsessual harakatlarda namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'ziga xos huquqiy mexanizmlarga va kafolatlarga ega bo'lib, alohida tahlil etilishi maqsadga muvofiq. *So'roq qilish* bu voyaga yetmagandan ma'lumot olishning eng keng tarqalgan protsessual harakatidir. Reith, Carr va Gunsch tomonidan ishlab chiqilgan raqamli kriminalistik modelda intervyu va so'roq protsessual harakatlarning birinchi bosqichi sifatida belgilangan (Reith et al., 2002). Voyaga yetmaganlar ishlarida so'roqning to'rt asosiy ishtirokchisi mavjud. Bularga jinoyat ishini yurituvchi mansabdor shaxs (surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror), voyaga yetmaganning qonuniy vakili, pedagog va/yoki psixolog, hamda zaruratga ko'ra himoyachi kiradi. Shuningdek, jinsiy zo'ravonlik yoki shaxslar savdosiga oid ishlarda so'roq maxsus jihozlangan, audio-video qayd etish tizimi bilan ta'minlangan xonalarda o'tkaziladi. Mazkur talab Lanzarote konvensiyasining 35-moddasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, voyaga yetmaganlarni takroran yetkazilishi mumkin bo'lgan travmadan saqlashga qaratilgan. *Olib qo'yish va tintuv* raqamli dalil tashuvchilarni voyaga yetmagandan yoki uning yashash joyidan olishning asosiy protsessual harakatidir. McKemish tomonidan asoslangan tezisga ko'ra, raqamli dalil sud-protsessual jihatdan qabul qilinishi uchun uning olinish jarayoni huquqiy talablar darajasida tasdiqlangan bo'lishi shart (McKemish, 1999). Mazkur qoida voyaga yetmaganlar bilan ishlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning yashash joyidan olib qo'yish jarayonida qonuniy vakil yoki kamida voyaga yetgan oila a'zosining ishtiroki, mutaxassis ishtiroki va olib qo'yiladigan ma'lumotlarning bayonnomada to'liq rasmiylashtirilishi majburiy hisoblanadi. *Ekspertiza tayinlash* esa raqamli dalilning ilmiy-texnik tadqiqotini amalga oshirishning asosiy protsessual mexanizmidir. Rossinskaya va Semikalenova sud-kompyuter-texnik ekspertizasining nazariy-amaliy asoslarini tadqiq etib, voyaga yetmaganlarga oid raqamli dalillar ekspertizasida alohida etik va metodik talablar belgilanishi zarurligini asoslab bergan (Rossinskaya &



Learning and Sustainable Innovation

Semikalenova, 2016). Milliy huquqiy doirada voyaga yetmaganlarga oid raqamli ekspertizaning maxsus metodikasi qabul qilinmagan, bu protsessual bo‘shliq sifatida e’tirof etiladi. *Telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish va elektron axborotni olish* voyaga yetmaganlarga taalluqli alohida murakkab protsessual harakat hisoblanadi. “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-sonli Qonunning 122-moddasi mazkur tadbirning umumiy tartibini belgilab beradi, biroq unda ham voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llanilishning maxsus shartlari aniq belgilanmagan. Livingstone tomonidan asoslangan tezisga ko‘ra, voyaga yetmaganlarning telekommunikatsiya tarmoqlaridagi xabarlarining maxfiyligi kattalar xabarlariga nisbatan kuchliroq himoyaga muhtoj (Livingstone, 2018). Yuqoridagi tahlillarning yakuniy xulosasiga ko‘ra, voyaga yetmaganlardan dalil olish jarayonida to‘rt protsessual ishtirokchining majburiy ishtiroki ta’minlanishi shart: jinoyat ishini yurituvchi organ mansabdori, sertifikatlangan raqamli kriminalistika mutaxassisi, qonuniy vakil va pedagog yoki psixolog. Mazkur to‘rt ishtirokchining birgalikda jalb etilishi voyaga yetmaganlarning konstitutsiyaviy va protsessual huquqlarining samarali himoyasini ta’minlashning yagona huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Komparativ-huquqiy tahlilning natijasiga ko‘ra, milliy huquqiy ramka xalqaro standartlar bilan murakkab munosabatdadir. Mazkur munosabatning chuqur tahlili milliy huquqiy tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. BMTning Bola huquqlari konvensiyasi (1989) voyaga yetmaganlar huquqlarining xalqaro huquqiy negizini yaratgan. Konvensiyaning 3-moddasi bola manfaatlarining ustuvor tarzda hisobga olinishi prinsipini belgilab beradi (United Nations, 1989). Schabas tomonidan asoslanganidek, ushbu prinsip jinoyat-protsessual munosabatlarda voyaga yetmaganning psixofizik holatini hisobga oluvchi maxsus protsessual rejimni shakllantirishni taqozo etadi (Schabas, 2018). Konvensiyaning 12-moddasi bolaning eshutilishi huquqini, 16-moddasi shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniş huquqini va 40-moddasi jinoyat-protsessual huquqlarni mustahkamlaydi. Beijing qoidalari (1985) voyaga yetmaganlar bilan jinoyat-protsessual munosabatlarning xalqaro minimal standartlarini belgilab bergan (United Nations, 1985). Qoidalarining 8.1-moddasi voyaga yetmaganning shaxsiy hayoti va stigmatizatsiyadan himoyalaniş huquqini, 10-moddasi qonuniy vakilning majburiy ishtirokini, 14-moddasi yopiq sud majlisi prinsipini belgilaydi. Mazkur normalar milliy JPKning 60-bobi normalari bilan tipologik mosligi ko‘rsatadi, biroq unda raqamli muhitdagi spesifik xususiyatlarni hisobga olinmagan. Lanzarote konvensiyasi (2007) bolalarni raqamli muhitdagi jinsiy ekspluatatsiyadan himoya qilishning maxsus xalqaro huquqiy hujjati sifatida xizmat qiladi (Council of Europe, 2007). Konvensiyaning 35-moddasi voyaga yetmagan



jabrlanuvchidan dalil olishning maxsus standartlarini, ya'ni qayta so'roqning oldini olish, audio-video qayd etish va maxsus xonalardan foydalanishni talab etadi. Mazkur standartlar JPKning 121-moddasi oltinchi qismi bilan deyarli to'liq muvofiqdir, ammo onlayn-grooming, deepfake va boshqa raqamli zo'ravonlik shakllariga oid maxsus tergov metodikasi nazarda tutilmagan. Budapesht konvensiyasi (2001) kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro huquqiy bazasini yaratgan (Council of Europe, 2001). Mazkur konvensiyaning 9-moddasi bolalar pornografiyasini, 19-25-moddalari esa transchegaraviy raqamli dalil yig'ishning huquqiy mexanizmlarini belgilaydi. O'zbekiston hozirda mazkur konvensiyaga qo'shilmagan. Ushbu holat voyaga yetmaganlarga oid transchegaraviy raqamli jinoyatlarni tergov qilishni murakkablashtiradi. Yevropa Ittifoqining GDPR reglamentining (2016) 8-moddasi axborot jamiyati xizmatlari sharoitida 16 yoshdan kichik bolalarning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish uchun ota-onaning roziligi majburiylikni belgilab beradi (European Union, 2016). Mazkur norma "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonun bilan to'g'ridan to'g'ri muvofiqlashtirilmagan. Livingstone (2018) o'z tadqiqotlarida mazkur boshqaruv tafovutining bolalarning raqamli huquqlari himoyasiga salbiy ta'sirini empirik tarzda isbotlab bergan (Livingstone, 2018). Komparativ-huquqiy tahlilning yakuniy natijasiga ko'ra, milliy huquqiy ramka xalqaro standartlar bilan umumiy darajada muvofiqlikni ta'minlaydi. Lekin raqamli muhitdagi maxsus chaqiriqlar hisoblangan kiberbulling, onlayn-grooming, deepfake va voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma'lumotlarining maxsus himoyasi yetarlicha aks ettirilmagan. Mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish milliy qonunchilikning Lanzarote va Budapesht konvensiyalariga, shuningdek GDPRning 8-moddasiga moslashtirishni taqozo etadi.

Muhokama

Olib borilgan tahlil voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olishning milliy protsessual rejimida to'rt yo'nalishdagi protsessual bo'shliqning mavjudligini aniqlashga imkon berdi. Mazkur bo'shliqlarning tahlili Završnik (2020) tomonidan asoslangan tezisga muvofiq olib borilishi maqsadga muvofiqdir: ushbu muallifning fikriga ko'ra, jinoyat-protsessual tizimda zaif guruhlarga nisbatan maxsus huquqiy rejim shakllantirilishi kerak, vaqolanki raqamli muhit bunday rejimning tarkibiy elementlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi (Završnik, 2020). Birinchi bo'shliq voyaga yetmaganlarga oid 60-bob va raqamli dalillar institutining yangi normalarining tizimli muvofiqlashtirilmaganligida namoyon bo'ladi. 2024-yilda kodeksga kiritilgan raqamli dalillar normalari voyaga yetmaganlarning maxsus protsessual maqomini hisobga olmagan, 60-bob esa raqamli



dalillar institutining yangi normalari bilan tizimli bog‘lanmagan. Mazkur holatni hal qilish uchun yangi normativ qoidaning ishlab chiqilishi taqozo etiladi. Casey (2011) tomonidan asoslangan integratsion yondashuv asosida bunday qoida ikki normativ qatlamning yagona protsessual ramkada birlashtirilishini ta‘minlashi maqsadga muvofiqdir (Casey, 2011). Ikkinchi yo‘nalishdagi bo‘shliq voyaga yetmaganlarga oid kiberjinoyatlarni tergov qilishning maxsus metodikasining yo‘qligida ko‘rinadi. Lanzarote konvensiyasining 30-moddasi tergov organlari uchun maxsus metodikani ishlab chiqishni talab qiladi; bunday metodika kiberbulling, onlayn-grooming, deepfake va boshqa raqamli zo‘ravonlik shakllariga qarshi kurashning konkret usullarini belgilab berishi shart. Holt va Bossler (2014) tomonidan o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga muvofiq, mazkur metodika nafaqat texnik, balki psixologik o‘lchamlarni ham qamrab olishi kerak (Holt & Bossler, 2014). Uchinchi yo‘nalishdagi bo‘shliq voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma‘lumotlari himoyasining maxsus rejimining yo‘qligida ifodalanadi. Livingstone (2018) o‘z tadqiqotlarida bolalar ma‘lumotlarining alohida huquqiy himoyasi nafaqat axloqiy talab, balki konstitutsiyaviy huquqlarning samarali himoyasi uchun fundamental shart ekanligini isbotlab bergan (Livingstone, 2018). GDPRning 8-moddasiga moslashtirilgan, 16 yoshdan kichik voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma‘lumotlariga ishlov berish uchun ota-onaning roziligi majburiyligi haqidagi norma milliy "Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida"gi qonunda mavjud emas. To‘rtinchi yo‘nalishdagi bo‘shliq voyaga yetmaganlarga oid raqamli ekspertizaning maxsus mexanizmlarining belgilanmaganligida ko‘rinadi. Rossinskaya va Semikalenova (2016) tomonidan asoslanganidek, voyaga yetmaganlarga oid raqamli ekspertizada alohida etik va metodik talablar belgilanishi shart (Rossinskaya & Semikalenova, 2016). Hozirgi milliy huquqiy ramkada "Sud ekspertizasi to‘g‘risida"gi qonun va Vazirlar Mahkamasining 73-sonli qarori voyaga yetmaganlarga oid maxsus mexanizmlarni nazarda tutmaydi. Yuqorida zikr etilgan to‘rt yo‘nalishdagi bo‘shliq voyaga yetmaganlarning konstitutsiyaviy huquqlarining samarali himoyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur bo‘shliqlarni bartaraf etish PF-22-sonli Farmonda belgilangan bolalarni "raqamli makon"da himoya qilish vazifasini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bunga qaramay, ularning bartaraf etilishi nafaqat normativ-huquqiy o‘zgarishlarni, balki institutsional va metodik takomillashtirishni ham talab qiladi. Mason (2017) tomonidan asoslangan integratsion yondashuvga muvofiq, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish murakkab ko‘p qatlamli yondashuvni taqozo etadi (Mason, 2017).

Xulosa va takliflar



Olib borilgan tadqiqot voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyat ishlarida raqamli dalillarni olish va tadqiq qilishning maxsus protsessual kafolatlari bo'yicha bir qator xulosalarni shakllantirishga imkon berdi. Voyaga yetmaganlardan raqamli dalil olish kompleks protsessual jarayon bo'lib, u Jinoyat-protsessual kodeksining 60-bobi va raqamli dalillar institutining yangi normalarining tizimli munosabati doirasida amalga oshiriladi. Mazkur ikki normativ qatlamning birgalikda qo'llanilishi natijasida ikki bosqichli kafolat tizimi shakllanadi: birlamchi qatlamda barcha shaxslar uchun yagona qoidalar (mutaxassis ishtiroki, elektron ma'lumotlarning yaxlitligi, rasmiylashtirish), keyingi qatlamda esa voyaga yetmaganlar uchun maxsus kafolatlar (qonuniy vakil, pedagog va psixolog, vaqt cheklovlari, audio-video qayd etish, yopiq sud majlisi) tatbiq etiladi. Voyaga yetmaganlarning raqamli muhitdagi ikki tomonlama maqomi subyekt va obyekt sifatida turli protsessual rejimlarni taqozo etadi. Wall va Holt-Bossler tomonidan asoslangan kiberjinoyatlar tipologiyasiga muvofiq, ushbu rejimlar an'anaviy jinoyatchilik tergov yondashuvlaridan keskin farq qiladigan maxsus metodikani talab etadi. Milliy huquqiy doira xalqaro standartlar bilan umumiy muvofqlikni ta'minlaydi, biroq raqamli muhitdagi maxsus chaqiriqlar (kiberbulling, onlayn-grooming, deepfake va voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma'lumotlarining maxsus himoyasi) yetarlicha aks ettirilmagan. Olib borilgan tahlil milliy tizimda to'rt yo'nalishdagi protsessual bo'shliqni aniqlashga imkon berdi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar shakllantirilgan:

Dastlabki taklif sifatida Jinoyat-protsessual kodeksining 60-bobiga 559¹-modda "*Voyaga yetmagan shaxsdan raqamli dalillarni olish va tadqiq qilishning maxsus tartibi*" nomi ostida kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur modda voyaga yetmagan shaxsdan elektron jismni olib qo'yish qonuniy vakil va pedagog yoki psixolog ishtirokida amalga oshirilishini, mutaxassis ishtirokining majburiyligini hamda raqamli dalilning shaxsiy ma'lumotlar maxfiylikini ta'minlash talablarini birlashtirishi nazarda tutiladi.

Keyingi qadam sifatida Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi qo'shma yo'riqnomasi bilan voyaga yetmaganlarga qarshi raqamli muhitda sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishning maxsus metodikasini ishlab chiqish va tasdiqlash zarurati ko'tariladi. Mazkur metodika kiberbulling, onlayn-grooming, deepfake va raqamli zo'ravonlikning boshqa shakllariga qarshi kurashning konkret usullarini belgilab berishi, Lanzarote konvensiyasining 30-moddasi va Budapesht



konvensiyasining 9-moddasi talablariga muvofiq bo‘lishi va PF-22-sonli Farmonning 48-bandida belgilangan 24/7 monitoring platformasi bilan integratsiyalashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-sonli Qonunga voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma’lumotlari himoyasining maxsus rejimini belgilab beruvchi alohida modda kiritilishi taklif etiladi. Mazkur modda GDPRning 8-moddasiga moslashtirilgan tarzda 16 yoshdan kichik voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma’lumotlariga ishlov berish uchun ota-onaning yoki qonuniy vakilning roziligi majburiyligini hamda voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma’lumotlarini kriminalistik tahlilda foydalanishning maxsus tartibini belgilab berishi maqsadga muvofiqdir.

Yakuniy taklifda Vazirlar Mahkamasi tomonidan Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti (PQ-229 bilan tashkil etilgan) hamkorligida “Voyaga yetmaganlarga oid raqamli dalillarni ekspertiza qilishning maxsus metodikasi” qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur metodika voyaga yetmaganlarning yosh xususiyatlarini, psixologik-pedagogik talablarni va shaxsiy ma’lumotlar maxfiylikini hisobga oluvchi maxsus protsessual yondashuvni belgilab berishi nazarda tutiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda voyaga yetmaganlarning ijtimoiy tarmoq akkauntlaridan olingan dalillarning huquqiy maqomi, deepfake texnologiyasi yordamida voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning maxsus tergov tartibi, voyaga yetmagan jabrlanuvchining ovozli yordamchilar (Siri, Alexa va boshqa) bilan o‘zaro aloqasidan olingan ma’lumotlarning isbotlash kuchi hamda onlayn o‘yinlardagi voyaga yetmaganlar ishtiroki bilan bog‘liq raqamli dalillar masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES

1. Ayers, R., Brothers, S., & Jansen, W. (2014). *Guidelines on mobile device forensics* (NIST Special Publication 800-101 Revision 1). National Institute of Standards and Technology. <https://doi.org/10.6028/NIST.SP.800-101r1>
2. Carrier, B. (2005). *File system forensic analysis*. Addison-Wesley Professional.
3. Casey, E. (2011). *Digital evidence and computer crime: Forensic science, computers, and the internet* (3rd ed.). Academic Press.
4. Council of Europe. (2001). *Convention on Cybercrime* (ETS No. 185). Budapest, 23 November 2001. <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/185>



5. Council of Europe. (2007). *Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse* (CETS No. 201). Lanzarote, 25 October 2007. <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/201>
6. European Union. (2016). *Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation)*. Official Journal of the European Union, L 119/1.
7. Holt, T. J., & Bossler, A. M. (2014). An assessment of the current state of cybercrime scholarship. *Deviant Behavior*, 35(1), 20–40. <https://doi.org/10.1080/01639625.2013.822209>
8. Lievens, E. (2010). *Protecting children in the digital era: The use of alternative regulatory instruments*. Martinus Nijhoff Publishers.
9. Livingstone, S. (2018). Children: A special case for privacy? *Intermedia*, 46(2), 18–23.
10. Livingstone, S., & Third, A. (2017). Children and young people's rights in the digital age: An emerging agenda. *New Media & Society*, 19(5), 657–670. <https://doi.org/10.1177/1461444816686318>
11. Mason, S. (Ed.). (2017). *Electronic evidence* (4th ed.). LexisNexis Butterworths.
12. McKemmish, R. (1999). What is forensic computing? *Trends and Issues in Crime and Criminal Justice*, (118), 1–6. Australian Institute of Criminology.
13. O'zbekiston Respublikasi. (2010, iyun 1). *Sud ekspertizasi to'g'risida* (O'RQ-249-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
14. O'zbekiston Respublikasi. (2012, dekabr 25). *Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida* (O'RQ-344-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
15. O'zbekiston Respublikasi. (2017, sentabr 8). *Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida* (O'RQ-444-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
16. O'zbekiston Respublikasi. (2019, iyul 2). *Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida* (O'RQ-547-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
17. O'zbekiston Respublikasi. (2022, aprel 15). *Kiberxavfsizlik to'g'risida* (O'RQ-764-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>
18. O'zbekiston Respublikasi. (2024, noyabr 21). *O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida* (O'RQ-1003-sonli Qonun). Lex.uz. <https://lex.uz/>



19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (1994, sentabr 22). *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi* [2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-sonli Qonun bilan o‘zgartirishlar bilan]. Lex.uz. <https://lex.uz/>
20. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2023, aprel 30). *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi* [umumxalq ovoz berishida qabul qilingan tahrirda]. Lex.uz. <https://lex.uz/>
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, iyun 21). *Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ-229-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, aprel 30). *Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida* (PQ-153-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026a, fevral 16). *Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PF-21-sonli Farmon). Lex.uz. <https://lex.uz/>
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026b, fevral 16). *"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va "O‘zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida* (PF-22-sonli Farmon). Lex.uz. <https://lex.uz/>
25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2023, fevral 21). *Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida* (73-sonli qaror). Lex.uz. <https://lex.uz/>
26. Pollitt, M. M. (2010). A history of digital forensics. In K.-P. Chow & S. Sheno (Eds.), *Advances in digital forensics VI* (pp. 3–15). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-642-15506-2_1
27. Reith, M., Carr, C., & Gunsch, G. (2002). An examination of digital forensic models. *International Journal of Digital Evidence*, 1(3), 1–12.
28. Rossinskaya, Ye. R., & Semikalenova, A. I. (2016). *Osnovi teorii i praktiki sudebno-kompyuterno-texnicheskoy ekspertizi* [Foundations of theory and practice of forensic computer-technical expertise]. Norma.
29. Schabas, W. A. (2018). *U.N. Convention on the Rights of the Child: A commentary*. Oxford University Press.



30. UNICEF. (2017). *The state of the world's children 2017: Children in a digital world*. United Nations Children's Fund. <https://www.unicef.org/reports/state-worlds-children-2017>
31. United Nations. (1985). *United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (Beijing Rules)*. UN General Assembly Resolution 40/33 of 29 November 1985.
32. United Nations. (1989). *Convention on the Rights of the Child*. UN General Assembly Resolution 44/25 of 20 November 1989.
33. Vexov, V. B. (2016). Elektronnye dokazatelstva: problemy teorii i praktiki [Electronic evidence: Problems of theory and practice]. *Pravoporyadok: istoriya, teoriya, praktika*, 4(11), 46–50.
34. Wall, D. S. (2007). *Cybercrime: The transformation of crime in the information age*. Polity Press. Završnik, A. (2020). Criminal justice, artificial intelligence systems, and human rights. *ERA Forum*, 20, 567–583. <https://doi.org/10.1007/s12027-020-00602-0>